

**Guliston davlat universiteti**

**“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi,  
Psixologiya fanlari doktori, dosent,  
Sharapova Saboxat Djabbarovna  
taqrizi ostida**

**Turdiyeva Charosxon Shuxrat qizi**

**GulDU talabasi  
+998882451305**

**[charosturdiev086@gmail.com](mailto:charosturdiev086@gmail.com)  
Ravshanov Sobir Abdumalik o'g'li**

**GulDU doktoranti  
+998881743031**

**[sobirravshanov3@gmail.com](mailto:sobirravshanov3@gmail.com)**

---

## XVI-XVII ASRLARDA JAHON PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI-XVII asrlarda Jahon psixologiyasidagi rivojlanishlar, fan sohasidagi tub burilishlar, shuningdek mutafakkur olimlarning psixologiyaga sohasida olib borgan tadqiqotlari haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit sozlar:** Psixologiya rivoji, Ratsionalizm, sensualizm, substansiya, affektlar, assotsatsiya, intuitiv bilish, reflexiv.

---

### РАЗВИТИЕ МИРОВОЙ ПСИХОЛОГИИ В XVI-XVII ВЕКАХ

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются события в мировой психологии в 16-17 веках, радикальные изменения в области науки, а также исследования, проводимые мыслящими учеными в области психологии.

**Ключевые слова:** Развитие психологии, Рационализм, сенсуализм, субстанция, аффекты, ассоциации, интуитивное познание, рефлексивность.The development of world psychology in the 16th and 17th centuries.

---

### THE DEVELOPMENT OF WORLD PSYCHOLOGY IN THE XVI-XVII CENTURIES

**Abstract:** This article discusses developments in world psychology in the 16th and 17th centuries, radical changes in the field of science, as well as the research conducted by thinking scientists in the field of psychology.

**Key words:** Development of psychology, Rationalism, sensualism, substance, affects, association, intuitive knowledge, reflexive.

---

**Kirish.** Psixologiya fanining rivojlanishi uzoq o‘tmishga ega bo‘lib asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Bugungi davrda 300 dan ortiq yo‘nalishni qamrab olgan psixologiya fani jadal sur’atlarda rivojlanish bosqichiga XVII-XVIII asrlarda kirdi. Har bir fanning o‘ziga hos tarixiy bosqichga ega bo‘lgandek ushbu psixologiya fani ham bundan yiroq emasdir va fanning tarixini bilish hozirda oldinga qo‘yilgan maqsadni to‘la yechishga imkon beradi va katta ahamiyatni kasb etadi.

XVII-XVIII asrlarda ilm-fanga mutloqo yangicha qarashlar, tushunchalar paydo bo‘ldi. Bu yangicha qarashlar ratsionalizmga va nazariy yondashuvlarni amaliy asoslashga qaratilgan edi. Bu esa psixologiya sohasi rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo‘yishni anglatdi. Aynan shu qarashlar olimlar uchun yangi psixologik konseptsiyalarni ishlab chiqish uchun motiv bo‘lib

xizmat qildi. Psixologiya fani dastlabki rivojlanish jarayonida falsafaning tarkibida edi. Buni psixologiyaning predmeti faqatgina «jon — ruh» deb qaralganida yaqqol kuzatish mumkin. Psixologiya rivojlanish jarayonida nafaqat jon — ruh borasidagi muammolarni, balki insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgana boshladi. XVII asr psixologlar ko‘z o‘ngida psixikaga bo‘lgan qarashlarning tubdan o‘zgarishi davri sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrini «fanlar malikasi» bo‘lib hisoblangan mexanika fani ta’sirida paydo bo‘lgan konseptsiyalar ochib berdi. [1]

XVII asr psixologiya fani sohasi uchun eng kerakli davr hisoblanadi. chunonchi Fransiya olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g’ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf qilinishi, yurakdagi mushaklaring ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligi tashuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta’sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini ob’ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini asoslashga imkoniyat yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbsning (1588-1679) qarashlari juda ahamiyatlidir. Chunonchi u ruhni mutlaqo inkor etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan oladi, uning qonuniyatları psixologiyaning ham qonuniyatları ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Uning negizada- epifenomalizm (yunoncha eri – o‘ta, rhainominon -g’ay ri tabiiy hodisa) vujudga keldi, ya’ni psixologiya tanadagi jarayon-laming soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalarto’g’risidagi ta’limotga aylandiy Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko’lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya’ni yaqqol narsa deb. tashuntirdi. U determinizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya’ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisaiarning ob’ektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta’limot targ’ibotchisi edi. XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnis (1646-1716) ning ta’limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta’sir etgan edi, Psixika hayot manzarasi arifmetik yig’indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo‘ladi. Leybnis tasawurlarning uzlusiz chegaralanishi g’oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiylar di qqat va xotirani o’z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnis psixologiyaga psixikaning faoliigi tabiatni va uzlusiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko’rinishlari o’rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g’oyani olib kirdi. XVII asrda emperizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta’limotning, ya’ni aqlda hech qanday tug’ma g’oyalar va tamoyillar bo’lishi mumkin emasligi haqidagi ta’limotning oldingi marraga ko’tarilishiga olib keldi. Bu ta’limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632- 1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlaming tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta’limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o’tish yo’llari puxta o’rganilishini taqazo etadi. J. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo’lib, biri tashqi sezgi a’zoJarning faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o’zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hech qanday g’oyalarga ega bo?lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi - "toza taxta" bo’lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g’oyalardan tarkib topadi. Bu g’oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo’ladi. Ikkinchchi holatda ong real narsalarga emas, balki o’z xususiy mahsuliga yo’naltirilib, o’zi bilan o’zi bo’lib qoladi. J.Lokkning refleksiya ta’limoti kishi psixologik faktlami interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta’limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo’yilar edi. J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to’g’risidagi ta’limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta’limotlaming taraqqiyotiga turki bo’ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo’lgan fransuz, A.N.Radishchev (1749- 1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda

tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi degan edilar. XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'lomit vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut. ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turiari kashf qilindi. Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1896- 1934) reflektor nazariyasi ruyobga cniqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya refleksiariining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi. Aytish kerakki, psixologiya fani borasidagi tadqiqotlar, kashfiyotlar shu bilan tugab qolmasdan, balki bu boradagi ishlar yanada kuchaytirilib samarali natijalarga erishilmoqda. [2]

Djon Lokk goyalar va fikrlar tugma ekanligiga oz amaliy tajribalaridan kelib chiqqan holda rad javobini beradi. Ingliz olimi va pedagogi Djon Lokk Bekon kashf qilgan ilmiy metodning bevosita davomchisi edi . Lokk psixologiya ham ,boshqa tabiat fanlari singari ,ogzaki mulohazalarga emas balki ilmiy tajriba asoslanmogi lozim ,deb hisoblaydi . Lokkning aytishicha ruxiy hodisalarni organishning birdan -bir metodi bu tajriba va kuzatishdir.

Substansiya deganda Spinoza bizdan tashqarida joylashgan tabiatni tushunadi. Bu substansiya o'z navbatida bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, inson ulaming faqat ikkitasi -tana va fikmi biladi. Shuning uchun ruh va tana bitta individuallikni, ya'ni fikrlaydigan tanani tashkil etadi. Alovida ruhiy substansianing borligini Spinoza inkor etadi, lekin materiya va tafakkur birligi muammosini oxirida ochib berolmadi. Substansiylar ta'lomit asosida Spinoza insoning xissiy holatlari ko'proq affektlar masalasini yoritib berdi. o'zining affektlar haqidagi ta'lomitida alffektlarning paydo bo'lishi va ulaming tabiatni, odamlaming affektlarga qulligi va affektlaming kuchi, inson ozodligi va inson aqlining kuchi masalalari yuzasidan to'xtaldi. Affektlami Spinoza tabiiy hodisa deb biladi. Affektlar orasidan Spinoza 3 tasini alovida ajratib ko'rsatadi.

1. Xohlash
2. Qoniqish
3. Qoniqmaslik

Qolgan barcha emotsiyalar shulardan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Spinoza affektlar butunlay inson irodasiga bog'liq va ularni to'liq boshqarish mumkin, degan fikrga qo'shilmaydi. Bu borada u affektlarni inson ustida o'tkazadigan hukmronligi haqida fikr yuritadi. Barcha affektlar Spinozaning fikricha insonni shunday holatga olib keladi-ki, bunda u o'z-o'zini boshqara olmaydi. Tasodiflarga qaram boiib, aniqlik ko'z oldida, noaniqlik tomon boradi, ozodlik esa affektlarga ergashishda emas, balki ularni aqlga bo'ysundirishdir.

Xulosa qilib aytganda XVII-XVIII asrlarda psixologiya sohasida mutloqo yangicha qarashlar, tushunchalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bu yangicha qarashlar turli yondashuvlarni amaliy isbotlashga qaratilgan edi. Bu esa psixologiya sohasi rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo'yishga olib keldi. Fan olimlarining ilmiy izlanishlari keying asrlarda psixologiya sohasining jadal suratlarda shakillanishiga xizmat qildi. Bugungi kunda juda keng qamrovli, juda chuqr ildiz otgan psixologiya sohasining rivojlanishida XVII-XVIII asrlarda shakllangan psixologik qarashlar, yangi yo'nalishlarning ahamiyati beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Psixologiya tarixi. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti. [1-60-61 b]
2. Umumiy psixologiya. F.I.Haydarov, N.I.Halilova. –Toshkent 2010. [1-10-12 b]
3. Baratov. Sh.R, L.Y.Olimov O.R.Avezov / Psixologiya nazariyasi va tarixi, / Toshkent-2019 y [3, 4]
4. Davletshin M.G. «Psixologiya tarixi» dastur. T. —1996-y.
5. David G. Mayers «Psychology ninth addition in modulus» 2010. 6-7 pages
6. A.Zununov. Pedagogika tarixi. Toskkent-2004.